

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR BILISH JARA YONLARINI RIVOJLANTIRISHDA SENSOR TARBIYANING O'RNI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

Samarqand davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga sensor tarbiya berish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Bu jarayonning asosiy ishtirokchisi, ya'ni tarbiyachiga qo'yiladigan hozirgi zamon talablari bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Bola, tabiat, hodisa, sensor, tasavvur, o'yin.

РОЛЬ СЕНСОРНОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье обоснованы особенности процесса сенсорного обучения. А также изложено важность игр в усовершенствовании данного процесса.

Ключевые слова. Ребенок, природа, событие, сенсор, воображение, игра.

THE ROLE OF SENSORY EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article describes the specific features of the process of sensory education of children of preschool age. It is stated that games play an important role in development of this process.

Key words. Child, nature, event, sensorium, imagination, game.

Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ahamiyati kattadir. Bu o'z navbatida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni va "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiysi"ning qabul qilinganligi hamda ushbu hujjatlar mohiyatiga ko'ra uzlusiz ta'lim tizimining shakllanganligi ta'lim –tarbiya asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Maktabgacha bolalikda sensor jarayonlar ayniqsa alohida ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki voqelikdagi narsa va hodisalarining shakli katta–kichikligi, rangi va boshqa xossalari to‘g‘ri va aniq idrok qilish qobiliyati ayni shu maktabgacha tarbiya yoshi davrida tez rivojlanadi. Sensor “sensorium” lotincha sezgi organlari degan ma’noni bildiradi. Narsalarning turli xil rangi, shakllari katta–kichikligi va fazodagi holatini ko‘zi bilan ko‘rib, musiqa, inson nutqi kabi har xil tovushlarni qulog‘i bilan eshitib, qattiq-yumshoqligini g‘adir-budurligini, sovuq yoki issiqligini qo‘llari va terisi bilan sezib, turli hidlar va mazza–ta’mlarni his qilib, bolada sekin-asta sensor tajriba to‘planib boradi va mana shu asosida bilim doirasi kengayadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni mana shu buyumlarning shakli, katta–kichigligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to‘g‘ri idrok qilishi ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to‘g‘ri hal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va hatto axloqiy tarbiyasi ham muvaffaqiyatlari amalga oshiriladi, ya’ni bola har tomonlama rivojlanib boradi.

Sensor harakatlarning rivojlanish darajasi bolaning qobiliyatları shakllanayotganda hamda muayyan bilimlarni va ayrim amaliy ko‘nikmalarni egallash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Bolada shakl va bo‘yoqlarni idrok qilish qibiliyati rivojlangan bo‘lsa, u tevarak-atrofdagi narsalarning xossalarni har tomonlama ko‘ra oladi va akslantira oladi. Bu esa ularni tasvirlash, rasm chizish, loydan, qog‘oz va matodan qirqib har xil narsalar yasash hamda ko‘rish–yasash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Tug‘ilgandan to‘lg‘aygungacha, bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularidan foydalanib, atrofdagi dunyoni anglashga intilishadi. Ular buni ushlash, tatib ko‘rish, hidlash, ko‘rish, harakat qilish va eshitish orqali amalga oshiradilar.

Bolalar va hatto kattalar o‘zlarining sezgi organlari orqali to‘liroq ma'lumotni olishadi va uni xotirada saqlab qolishadi. Ko‘pgina eng yaxshi xotiralarimiz bir yoki bir nechta hissiyotlarimiz bilan bog‘liq. Masalan, yozgi tungi gulxanning hidi yoki siz bolalikdagi do‘stingiz bilan yodlagan qo‘sish. Endi sizning burn va quloqlaringiz o‘shta tanish hidlar va tovushlarni sezganda, miyangiz o‘shta vaqtarda saqlangan xotirani qo‘zg‘atadi.

Bolalarga "sensor o‘yinlar" orqali o‘zlarining dunyolarini kashf qilishlarida sezgilaridan faol foydalanishlarga o‘rgatish miyaning rivojlanishi uchun juda muhimdir - bu miyadagi turli markazlar aloqalarni yaratishga yordam beradi.

Bu bolaning yanada murakkab o‘quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyatini, kognitiv o‘sishni, tilni rivojlantirishni, vosita ko‘nikmalarini, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Biz ko‘pincha beshta sezgi borligini bilamiz. Bular:

Ta'm bilish - ta'm retseptorlari og'zimizdagi kimyoviy moddalar bilan reaksiyaga kirishganda paydo bo'ladigan ta'sir.

Sezish - bu bizning terimizdagi bosim, issiqlik, sovuq yoki tebranishga nisbatan sensorli retseptorlardan kelib chiqadigan stimulyatsiya.

Hid - yuqori havo yo'llarida (burun) kimyoviy retseptorlarni qo'zg'atish.

Ko'rish - bizning miyamiz tasvirlarni talqin qiladigan bizning ko'zlarimizdagi yorug'lik retseptorlarini qo'zg'atish.

Eshitish - bizning ichki qulog'imizdagi maxsus vositalar yordamida ovozni qabul qilish.

Ammo biz ko'pincha unutib qo'yadigan yana ikkita ta sezgi bor:

Propriotseptsiya - miyamiz mushaklarimizdagi retseptorlari va bo'g'indardagi bosim retseptorlari orqali bizning tanamiz fazoda ekanligi to'g'risida ma'lumot olishga imkon beradi.

Muvozanat - tanamizning pozitsiyasini bilish uchun ichki qulquning vestibulyar tizimini stimulyatsiya qilish assosida paydo bo'ladigan sezgidir.

Bu sezgilar sensor o'yinlar jarayonida asosiy ahamiyat kasb etadi. Sensor o'yinlar yosh bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadigan har qanday faoliyatni o'z ichiga oladi. Bolalarsensor o'yin jarayonida, quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar: mustaqil o'yin qobiliyatları ustida ishslash, matematik qobiliyatlar, syujetli-rolli o'yin, hayotiy ko'nikmalar (quyish, ochish, uzatish), ta'sirli o'rganish, o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish va shu kabilar. Bolalar tartibsizlikka yo'l qo'ymasdan o'ynashni o'rganishlari kerak [5].

Bolalarning yoshi ulg'ayib, hayot tajribalari ortishi, sharoitlarning o'zgarishi bilan idrok etish jarayoni va unga qo'yiladigan talab ham murakkablashadi.

Ezish, chapillatish, aylantirish, sachratish, siqish, portlash, yugurish, chayqash, silkitish, surish, otish va og'zini ochish – bolalar bu hissiyotlar orqali dunyonı o'rganishi juda foydalidir. Bu ba'zan shovqinga sabab bo'lishi mumkin, shuning uchun tarbiyachilar ko'pincha ushbu o'yin turlarini qisqartirishga harakat qilishadi. Aslida, sensor o'yin - har qanday bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadigan o'yin va u bolaning sog'lig'i va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu orqali bola kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi va dunyo haqida ko'proq bilib oladi.

Bolalarni sensor tarbiyalash jarayonida tarbiyachi bolalarga tegishli topshiriqlar berishi: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yishda ularning og'irligini his qilish, buyumni qo'liga olib, uning sirtini sezish va sifatini-silliq yoki g'adur-budurligini, issiq yoki sovuqligini va shunga o'xshashlarni aniqlashi kerak.

Bolalarni tekshirish usullari va buyumlarning sifatlari bilan tanishtirgandan keyin tarbiyachi, bu sifatlarni ajratish bo'yicha ularni mashq qildirishni tashkil etish lozim. Bunda bolada qo'llayotgan usulning hamda so'z orqali beriladigan ta'rifning

aniqligini ta'minlash muhimdir. Mashq qildirish uchun mazkur sifatga ega bo'lgan turli buyumlarni tanlash zarur. Mashqlarni mazkur sifat belgisi asosida xilma-xil buyum guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunday sharoitda sifatning aniq bir buyumdan ajralishi ro'y beradi, bu esa yangi bosqichga turli xossalalar haqida umumlashgan tasavvurlarni shakllantirish uchun asos bo'ladi.

Sensor tarbiya mazmuni butun maktabgacha yoshdagি bolalik davomida bolalarda turli yosh davrlarida vujudga keladigan va rivojlanadigan faoliyat turlarini hisobga olib amalga oshiriladi. Sensor tajriba natijasida bola dunyoni hissiy bilish, ko'rgazmali obrazli fikrlash usullarini egallaydi. Bolalarning barcha turdagи faoliyati yanada takomillashadi, nazariy va amaliy faoliyatda nisbiy mustaqillik shakllanadi.

Bola uch yoshga to'lib MTTga qatnay boshlagach, bolaning faoliyat doirasi juda kengayib ketadi, nutqi g'oyat jadallik bilan o'sa boshlaydi. Buning natijasida bola juda ko'p narsalar bilan mustaqil hamda bevosita munosabatda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bola hayotidagi bu o'zgarish o'z navbatida uning idrokiga ta'sir etmay qolmaydi. Ular kundalik faoliyatlar davomida juda ko'p narsalar bilan to'qnashadilar. Shunday bo'lishiga qaramay kattamaktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlaridagi etayotgan narsalarning nima ekanini har doim kattalarning yordamisiz bilavermaydilar.

Maktabgacha yoshdagи bolalar idrokining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ular turli narsalarni idrok qilishda ko'zga tashlanib turadigan belgilariga asoslanadilar. Biroq tajribalari hali yetarli bo'limgani, ya'ni ko'p narsalarning mohiyatiga mutlaqo tushuna olmasliklari narsalarning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan eng muhim va umumiyligi belgilarni aks ettira olmaydilar. Ular narsalarni idrok qilishda konkret tasavvurlarga asoslanadilar. Shu sababli bolalar uchun narsalarning asosiy va muhim belgilari ularning rangi va shaklidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar shuning uchun ham o'xshash narsalar shaklini bir-biridan bemalol ajrata oladilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar idrok qilish paytida narsalarni chuqur tahlil qila olmaydilar. Bolalar idrokidagi bu yetishmovchilik ularning turli rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko'rindi. Bolalar rasmida tasvirlangan narsalarning holatiga va fazoviy munosabatlariga tamomila befarq bo'ladilar. Ular rasmlarni teskari ushlab ham zavq bilan tomosha qilaveradilar. Buning asosiy sababi rasmni idrok qilishga nisbatan bolalarning analistik munosabatda bo'lolmasliklardir. Bolalar rasmida tasvirlangan narsalarni bir-biri bilan ma'lum munosabatda emas, balki tasvirlangan narsalarning hammasini butunligicha idrok qilishga intiladilar. Ularda hali tahlil qilish xususiyatlari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun rasmlar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarga yo'naltiruvchi savollar berib, ularni analiz qilishga o'rgatib borishi lozim. Rasmlarni idrok qilish ana shunday tarzda yo'lga qo'yilgandagina bolalarning idrok qilish qobiliyatini hamda kuzatuvchilik xususiyatini rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda fazoviy tasavvurlarning yetarli darajada aniq emasligini ularning chizgan rasmlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, kichik va o‘rta guruh bolalari rasm chizganlarida narsalarning hajmiy munosabatlari unchalik e’tibor bermaydilar. Ularning chizgan rasmlarida uyning balandligi avtomashinaning balandligi bilan, odamning bo‘yi esa terakning bo‘yi bilan barobar bo‘lishi mumkin. Bu bolalarni mutlaqo hayron qoldirmaydi. Fazoviy munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilish va binobarin, fazoviy munosabatlar haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish asta-sekinlik bilan bolalarning turmush tajribalari orta borishi davomida o‘sib boradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning vaqtini idrok qilishlari ham mukammal xarakterga ega emas. Bolalarda vaqtini to‘g‘ri va anglab idrok qilish fazoni idrok qilishga nisbatan qiyinroq. Bolalar uchun vaqtini idrok qilishning qiyin tomonlaridan biri, ular vaqtning uzluksiz o‘tuvchanligini (ya’ni vaqtning beto‘xtov o‘tishini) anglay olmaydilar va binobarin, idrok ham qila olmaydilar. Bu narsani ularga ko‘rgazma asosida ko‘rsatib bo‘lmaydi. Natijada bolalar vaqt tushunchalarini ma’lum narsalar va hodisalar orqali konkretlashtirib idrok qilishga intiladilar. Kichik yoshdagi bolalarining vaqtini idrok qilishlarida shu narsa ko‘zga tashlanib turadiki, ular bir-biri bilan tez almashib turadigan vaqt o‘lchovlarini qiyinlik bilan o‘zlashtiradilar.

Maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlanishi boshlaydi. Biroq kichik yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagi bolalarida kun sayin paydo bo‘ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o‘yinchoq faoliyatlarining xilma-xil bo‘la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi.

Maktabgacha ta’lim yoshida bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya’ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib, yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o‘rta va katta bolalarning) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o‘tira olishlaridan, ba’zi o‘yinlarni zerikmay soatlab o‘ynay olishlaridan, ta’limiy mashg‘ulotlarda chidam bilan o‘tira olishlaridan ko‘rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqat ko‘lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlarnikiga nisbatan hali juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtida 5-6 narsani (bir-biri bilan ma’naviy bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘dira olsa, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar diqqatining ko‘lami ayni bir vaqtida 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari bitta, o‘rta va katta guruh bolalari esa ikkita) sig‘dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo‘lishga harakat qilsalar ham buning uddasidan chiqa olmaydilar. Masalan, 3-yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to‘kib-sochib olib keladi. Bu uning o‘quvsizligi, bo‘shangligi yoki anqovligidan emas, balki o‘z diqqatini ayni bir vaqtida ikkita narsaga bo‘la olmasligidandir. Bola o‘zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to‘kmay,

chayqaltirmay olib kelishga bo‘la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning diqqati ko‘pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli konsentrashgan(to‘plangan), ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bolalarda diqqatning bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Maktabgavha ta’lim yoshidagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘laming torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali sistema yo‘q, shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya’ni esida chuqur o‘rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: agar bog‘cha yoshidagi bolaga bir vaqtning o‘zida haddan tashqari ko‘p narsalar ko‘rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtarloq esda olib qololmaydilar.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, keyingi yillar mobaynida maktabgacha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya’ni ma’nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda olib qolish ustun bo‘ladi, degan fikr mavjud bo‘lib, shu bilan birga mexanik esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo‘yilar edi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ekserimental tekshirishlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha yoshidagi bolalarda ham narsa va so‘zlarning ma’nosiga tushunib eslab qolish katta o‘rin tutadi. Lekin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga o‘zları tushuniladigan material berilganda yaqqol ko‘rinadi.

MTTda jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo‘ysunish, qoidali o‘yinchoq shartlarini so‘zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam va qunt bilan ado etish kabi hollar bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o‘yinchoqning ahamiyati juda kattadir. Chunki o‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarni ilgari suradilar. O‘yinlarning qanday qoidalar asosida o‘ynalishini o‘zları mustaqil ravishda tanlab oladilar. O‘yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o‘z harakatlarini o‘yin qoidalariga moslashtirishga va o‘yinda qatnashuvchi o‘rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga tirishadilar.

O‘yin bolaning amaliy faoliyati shakllaridan biri bo‘lib, uning tevarak-atrofidagi hayotni o‘zlashtirib olishga qaratilgandir. Ammo bu bilishdan oldin uning bevosita shakllari (idrok qilish, kuzatish) ro‘y beradi, bu esa o‘yinda bolaning sensor rivojlanishiga rahbarlik qilishga alog‘ida talablar qo‘yadi:

1) bolalarning sensor rivojlanishiga ta’sir etish o‘yinning mazmuni, uning tuzilishi, tasviriy vositalari bilan ifodalanadi. Shuning uchun ijodiy o‘yinda nazariy

tushunchalar orqali rejalashtirilayotgan bilim va malakalarni mustahkamlab bo‘lmaydi:

2) bolalar o‘yinlarining mazmunini ularning tevarak-atrofdagi narsalar haqida taassurotlar bilimlarni kengaytirish orqali boyitish ijodiy o‘yinda bolalarning aqliy rivojlanishiga rahbarlik qilishning asosiy yo‘lidir. O‘yin jarayonida bilimlar qayta ishlanadi, ular takomilashtiriladi;

3) o‘yinlarni diqqat bilan kuzatish va tahlil qilish bolalarning ma’lum bir voqeя yoki hodisalarni tushunish darajasini aniqlashga hamda bilimlarni oydinlashtirish, chuqurlashtirish yoki tuzatishga doir ishlarni tashkil etishga imkon beradi;

4) bolalarning sensor o‘yinlariga kundalik rahbarlik qilishda ularning fantaziyasini rag‘batlantirish kerak.

5) o‘yinlarga rahbarlik qilish bolalarning o‘yin mavzusini oldindan belgilashga, rollarni taqsimlashga, o‘yining asosiy yo‘nalishini aniqlashga o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi kerak. [4].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mashg‘ulot jarayonida turli xil o‘yin turlaridan foydalanish mumkin. Bolaning aqliy rivojlanishida didaktik o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o‘yin - bu bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish usulidir. Tarbiyachi bu o‘yinlardan bolalarni jamiyatga aralashtirish uchun har xil rejalar, vazifalarni qo‘rqmasdan bajarishi uchun foydalanadi. Didaktik o‘yinlar ta’lim tarbiyaning vazifasi hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o‘yinlar bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, shuning uchun unda bolalar mashg`ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadi. Didaktik o‘yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday o‘yinlarga kichik guruh bolalari uchun “Rangiga qarab top”, “Shakliga qarab top” kabi o‘yinlarni misol sifatida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun “Sharbat va sho‘rva», “Quvnoq qistirgichlar”, “Soatcha”, “Xaritani to‘ldir” va boshqa o‘yinlarni ko‘rsatish mumkin. Didaktik o‘yinlar bolalarning tevarak-atrofhaqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bola o‘zi yakka tartibda va mashg`ulotlar jarayonida olgan bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodkorlik kuchlarni, sensor jarayonini rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o‘yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o‘zlashtiradi. Didaktik o‘yinlar kattalar

tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qancha ko‘p bolsa, bolalarga u shuncha ko‘p quvonch bag`ishlaydi. [2]

Didaktik o‘yining kerakli tomoni uni o‘tkazishdan ko‘zda tutiladigan g`oyadir. O‘yin g‘oyasi bolalarda o‘yinga qiziquvchanlikni uy``otadi, ko‘pincha bu g`oya didaktik o‘yinni boshlashga sababchi bo‘ladi. Masalan: «Ajoyib xaltacha» yoki «Kim qanday qichqiradi» va boshqalar. Ta’lim tarbiya uchun o‘yin natijasi hamma vaqtbolalarning bilim egallashida, aqliy faoliyatida, o‘zaro munosabatlarida erishgan yutuqlarining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Uning mazmuni, g`oyasi, harakatlari va qoidalari o‘zaro bir-biri bilan bog`liq bo‘lib, ularning bittasi bo‘lmasa ham o‘yinni o‘tkazib bo‘lmaydi. Didaktik o‘yining o‘yin faoliyati sifatidagi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari o‘yin tarzida bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha o‘yin mazmuni bilan belgilanadigan vao‘yin harakatlari talab etadigan bitta rolni tanlaydi. Masalan: do‘kon o‘yininda bilish mazmuni shundan iboratki, xaridor bolalar o‘zlarini sotib oladigannarsalarning belgilarini aytishi, sotuvchi bolalar bo‘lsa talab qilingan narsaning nima ekanligini xaridor aytgan belgilar bo‘yicha bilib olishlari kerak. O‘yin qoidalarini xaridorlarning oladigan narsalarni olishi, sotuvchiga yaxshi munosabatda bo‘lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko‘rib chiqishi va uni boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytishi va pul to‘lashidan iborat. Sotuvchilarning vazifasi esa xaridorlar so‘zlayotganda ularni yaxshi e’tibor bilan tinglash, so‘zlarini bo‘lmaslik, so‘ragan buyumlarini olib, qog‘ozga o‘rab berishdan iborat bo‘ladi.

Bu qaysi hayvon o‘yini

O‘yining maqsadi: bolalarni tashqi belgilari bilan tanish bo‘lgan narsalarni tanib olishni o‘rgatish (bu holatda hayvonlar turli yo‘llar bilan tanishtiriladi). Bundan tashqari, o‘yin tasavvurni, harakatlarni muvofiqlashtirishni va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi (bolalarni tavsiya etilgan belgilar asosida mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi).

Kerakli jihozlar: Hayvonlar haykali tasvirlari (bir xil o‘lchamda). Bu yovvoyi va uy hayvonlari bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, bu hayvonlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlari to‘plamiga ega bo‘lishi kerak.

O‘yining tartibi (o‘yin bir guruhsida o‘tkazilishi mumkin). Tarbiyachi bolalarga tasvirlangan hayvonlarning suratlarini ko‘rsatadi, ularni nomlashni taklif qiladi. Agar o‘yin yosh bolalar orasida o‘tkazilsa, u holda bu yoki boshqa hayvon qanday qilib "gapiradi" deb so‘rash kifoya. Agar 4.5-5 yoshdagi bolalar o‘ynayotgan bo‘lsa, unda biz bu yovvoyi hayvonning yashaydigan joyini eslashga chorlashimiz mumkin.[3].

Tarbiyachi har bir hayvonning yurishini takrorlashi kerak. Misol uchun, quyonning kichkina va yengil ekanligi, shuning uchun u yaxshi sakrashi mumkin va ayiq katta va og‘ir bo‘lib, shuning uchun qattiq urishadi. So‘ngra bolalarniham turli hayvonlarning "yurishini" taqlid qilishga chaqiradi.

Bolalarning hayvonlar haqida bilimlarini kuchaytirish uchun, tarbiyachi stol ustidagi rasmlarni tasvir tomonini yashirib, so‘ngra o‘yin ishtirokchilarini stoldan rasm olishni so‘raydi. Bolalar vazifani olib, hayvonni tasvirlab, «yurish» ni taqlid qilishadi va oxirida uni nomini so‘rashadi. Qolgan bolalar rasmida qanday hayvon tasvirlanganini bilishlari kerak.

O‘yin oxirida o‘qituvchi bolalarni rag‘batlantiradi va biron hayvon haqida she’r o‘qishga taklif qiladi.

Didaktik o‘yining ahamiyati shundan iborat, u olingan bilimlarini turlicha qo‘llash uchun, aqliy faoliyatini kuchaytirish uchun hayotiy sharoit yaratadi. Bunda bolalar yo‘l qo‘yilgan xatolar va ular nimadan qiynalayotganligi ma`lum bo‘ladi. Tarbiyachi bu xatolarni tuzatish va qiyinchiliklarni yengishda birdan birzarur vosita hisoblanadi. Yakka tartibdagi didaktik o‘yinni paydo qilish bilan tarbiyachi o‘zaro munosabatlar uchun qulay sharoit yaratadi, aqliy faoliyatda orqada qolishning sabablarini aniqlaydi, ko‘p mashg`ulot o‘tkazish bilan bunday bolalarning o‘sish darajasini oshiradi.

Bolada sensomotorikani rivojlantirish masalalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, sensor tarbiyaning sistemasi bolalarni faqat idrok qilinadigan xislatlar bilan tanishtirishgina emas, shu bilan birga ularda bu xuslatlarni ajratib ko‘rsatish va takrorlash imkonini beradigan his etib mo‘ljallash harakatlarini tartib topshirishni ham nazarda tutadi. Bunday harakatlarning sensor madaniyatni takomillashtirish, mактабгача yoshdan boshlab bolalarning rivojlanishi uchun yetakchi bo‘lgan predmet faoliyatini yaxshiroq egallah va umumiyl aqliy kamolot uchun ahamiyati shak-shubhasizdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar sensor harakatlarni tarkib toptirish sohasidagi ishlar mumtazam ravishda olib borilar ekan, bolalarning sensor rivojlanishda faqat umumiyl siljishga erishib qolmasdan, shu bilan birga aqliy jarayonlarning ham rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha yoshdagি bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat Talablari. Toshkent 2018 yil
2. Didaktik o'yinlar to'plami. «Istiqlol» nashriyoti -2004-yil, 15-bet
3. Jumanova. D.M., Tursunova Yu.K. «Quvnoq logotipik o'yinlar». Toshkent 2010 yil, 10-bet
4. Козлова С.А., Кушкова Т.А. Дошкольная педагогика. – М., 2000. – стр 56
5. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Toshkent «Yangi asr avlodi» – 2008 yil, 76-bet